

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 116 (1177), 2024-yil 13-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news




yuz



## Yun Sok Yol, Koreya Respublikasi Prezidenti: BIZ MARKAZIY OSIYODAGI YAGONA ALOHIDA STRATEGIK SHERIGIMIZ VA ASOSIY HAMKORIMIZ BO‘LGAN O‘ZBEKISTON BILAN DO‘STONA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVOM ETAMIZ

### Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol O‘zbekistonga amalga oshiradigan davlat tashrifi arafasida “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi.



— Janob Prezident, suhbatimiz ayni paytda chuqur transformatsiya bosqichidan o‘tayotgan O‘zbekistonga davlat tashrifingiz arafasida tashkil etilmoqda. Ma‘lumki, o‘z vaqtida Koreya Respublikasi ham bunday o‘zgarishlar jarayonini boshidan kechirgan. Mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyoti, O‘zbekiston rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik islohotlarni qanday baholaysiz?

— O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi ko‘plab umumiy tarixiy va madaniy xususiyatlarga ega. Men hamisha mamlakatimizga safar qilishni orzu qilganman. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilardan ushbu tashrifga taklif olish men uchun katta sharafdird.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilarning beqiyos rahnamoligida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va innovatsiyalar jarayonida yetakchilik qilmoqda.

O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, jumladan, yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, to‘lov balansi va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi yildan yilga o‘sib bormoqda.

Mamlakatning yuqori o‘shish salohiyatiga ega bozori, katta miqdordagi ishchi kuchi va geosiyosiy ahamiyati uni xalqaro kompaniyalar uchun biznes yuritish va investitsiyalar kiritish uchun juda jozibador makonga aylantirmoqda. Men kelishdan oldin Toshkentni qush parvozi balandligidan tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim va O‘zbekiston naqdar izchil rivojlanayotganini ko‘rdim.

O‘tgan yili e‘lon qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida islohotlar izchil davom ettirilib, yangi muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish, iqtisodiyotni liberalashtirish va xorijiy kompaniyalarni jalb etish kabi maqsadlarni ilgari surib, milliy iqtisodiyotni rag‘batlantirmoq-

da. Shuningdek, jamiyat hayotida korrupsiyaga qarshi kurashish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va boshqa yo‘nalishlarni qamrab olgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Bir paytlar mutlaq qashshoq mamlakat bo‘lgan Koreya Respublikasi tashqi dunyoga ochilish, iqtisodiyotini liberalashtirish va xalqaro hamjamiyat bilan yaqin hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish orqali iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishdi. Ushbu tajribaga asoslanib, Koreya Respublikasi O‘zbekistonning islohotlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi hamda bundan keyin ham respublikani ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik rivojlantirishda mamlakatimiz bilan alohida strategik sherik sifatida yaqindan hamkorlik qiladi.

— Bizning davlatlarimiz uchun iqtisodiy rivojlanish va o‘shish tashqi hamda ichki siyosatning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston xorij investitsiyasi

uchun eshiklarini ochmoqda, eksport salohiyatini oshirmoqda, yanada kengroq kooperatsiyaga erishish hamda savdo aloqalarini chuqurlashtirishga intilmoqda. Siz ushbu sohalarida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning istiqbollari haqida qanday fikr bildira olasiz? Qanday ta‘sir-lar o‘zaro aloqalar faollashuvini rag‘batlantirishi yoki ularga to‘sqinlik qilishi mumkin?

— Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilari 2016-yilda Prezidentlik lavozimiga kirishganidan buyon dadil islohotlar va ochiqlik siyosatini yuritib, O‘zbekistonni mutlaqo yangi mamlakatga aylantirdi.

Valyuta siyosatini liberalashtirish, bojxona to‘lovlarini kamaytirish va davlat korxonalarini tarkibiy o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan bozorni liberalashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar O‘zbekiston iqtisodiyotini jonlantirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga yordam berdi. Xususan, o‘tgan yili to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 96,4 foizga o‘sib, 7,68 milliard dollarga yetdi.

Koreya Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi bilan 1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatganidan buyon avtomobilsozlik, energetika, maishiy texnika, to‘qimachilik, moliya, telekommunikatsiyalar va boshqa yo‘nalishlardagi iqtisodiy hamkorlik ko‘lamini kengaytirdi.

2019-yilda ikki tomonlama munosabatlar Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan alohida strategik sheriklik maqomini oldi va o‘tgan yil o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi rekord darajadagi 2,46 milliard dollarga yetdi. Ayni damda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar har qachongidan ham o‘zaro manfaatli mazmun kasb etgan.

Bugun dunyo murakkab global inqirozga yuz tutayotgan ekan, men bunday vaziyatni o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni yanada diversifikatsiya qilish va chuqurlashtirish, jumladan, muhim foydali qazilmalarni yetkazib berish zanjirini rivojlantirish uchun imkoniyat deb hisoblayman. Ushbu tashrif chog‘ida hukumatlarimiz va biznes vakillari o‘rtasidagi muzokaralarning amaliy natijalarini ko‘rishga umid qilaman.

— Bugungi kunda O‘zbekiston mintaqaviy hamkorliklari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash vositasida

Markaziy Osiyoni jipslashtirish va uning salohiyatini yuksaltirishga intilmoqda. Buning samarasida Markaziy Osiyo xalqaro maydonda tobora muhim hamkor va faol xalqaro kuchga aylanib bormoqda. Sizning fikringizcha, ushbu jarayonlar mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar qanday ta‘sir qilmoqda?

— Bizga ma‘lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilari mintaqadagi qo‘shnilar bilan sheriklik munosabatlarini mustahkamlashni mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilab, mintaqaviy hamkorlikka yetakchi o‘rin tutmoqda. 2018-yilda uning tashabbusi bilan har yili o‘tkaziladigan format — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari tashkil etildi. Biz, shuningdek, O‘zbekiston qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegara va sudvan foydalanish masalalariga to‘g‘ri yechim topayotganini, xalqaro hamjamiyatning Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish borasidagi sa‘y-harakatlarida faol ishtirok etayotganini tan olamiz va e‘tirof etamiz.

Markaziy Osiyo geografik jihatdan Osiyo va Yevropa tutashgan hududda joylashgan bo‘lib, boy tabiiy resurslar, jumladan, nodir foydali qazilmalarga ega, uning strategik va iqtisodiy ahamiyati jadalik bilan oshib bormoqda. Ayni jihatlar mintaqaviy mavqeyning oshishiga hamda so‘nggi paytlarda Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro maydonda e‘tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyo bilan hamkorlikning muhimligini hisobga olib, tashrifimdan bir oz oldin bizning hukumat “Koreya Respublikasi — Markaziy Osiyo K SILK ROAD (R.O.A.D) hamkorlik tashabbusi”ni e‘lon qildi. Ushbu tashabbus mamlakatimiz va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi 30 yillik munosabatlar tajribasiga asoslanmoqda va jadalik bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro vaziyatga javoban yangi hamkorlik rejasini taqdim etmoqda.

Ushbu tashabbus Koreya Respublikasining mintaqangizga qaratilgan birinchi strategiyasi bo‘lib, Koreya va Markaziy Osiyoda erkinlik, tinchlik va farovonlikni birgalikda barpo etish maqsadida “yom-ma-yon” (birgalikdagi yo‘l) rivojlanish, “sa‘y-harakatlarini birlashtirish” (konvergensiya) hamda “innovatsiya va ijodkorlik” (kreativlik) tamoyillariga asoslanadi.



Xususan, u energetika va resurslar sohasida strategik sheriklikni mustahkamlash, o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun taraqqiyotga yo‘naltirilgan hamkorlikni modernizatsiya qilish, kelajakdagi farovonlik yo‘lida sheriklik aloqalarini o‘rnatish va bunga erishish uchun hukumatlar, biznes va fuqarolar o‘rtasida uyg‘un hamkorlik tarmog‘ini mustahkamlashga qaratilgan.

Kelgusida Koreya Respublikasi hukumati Markaziy Osiyoning beshta davlati bilan Markaziy Osiyo strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha maslahatlashuvlar va yaqin hamkorlikni davom ettiradi. Ayni paytda mintaqadagi asosiy hamkor va birodar davlat bo‘lgan O‘zbekiston bilan o‘zaro manfaatli va kelajakka yo‘naltirilgan hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

— O‘zbekistonda aholining katta qismini tashkil etuvchi 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar kamoloti, ularning sifati ta‘lim-tarbiya olishi, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘lim, fan va yuqori texnologiyalar sohalarida o‘zaro hamkorlik istiqbollari haqidagi fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashangiz.

— Koreya Respublikasi va O‘zbekiston bir-biridan uzoq masofada joylashgan bo‘lsa-da, ular o‘rtasidagi ilm-fan va texnologiyalarning ilg‘or yutuqlarini o‘zaro almashish jarayoni qadim va do‘stona tarixga borib taqaladi.

► Davomi 2-betda

## Prezident tashrifidan so‘ng

# DILBOG‘ — TARIXIY G‘ALABALARGA ZAMIN YARATUVCHI MASKAN

Yoz chillasi boshlanmagan bo‘lsa-da, kunlar ancha isiyapti. Poytaxtimizda ham harorat birmuncha yuqori, ertalabdan quyosh tafti tushgan joy borki, qattiq qiziydi. Shunday vaziyatda mahallalarda barpo etilgan yashil hududlar, soya-salqin go‘shalar jonga ora kiradi. Ertalabdan ish, o‘qish va boshqa yumushga otlanganlar yashillik orolab yurishga intiladi.



Mahalla aholisi o‘tgan haftada muhim tadbir guvohi bo‘ldi — Prezidentimiz poytaxtimizdagi jamoat xavfsizligi va sport sohasidagi yangi obyektlar hamda bunyodkorlik ishlari bilan tanishuvi asosida mazkur mahallaga ham tashrif buyurdi.

Mahallada 5200 dan ortiq kishi yashaydi. 26 ta ko‘p qavatli uy, maktab va bog‘chalar,

savdo shoxobchalari atrofi obod qilingan. “Dilbog‘” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida ham mahallabay tizim asosida tadbirkorlik va hunarmandlik rivojlanmoqda. Hududda 15 ta savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, bitta ishlab chiqarish korxonasi, ta‘lim muassasalarida aholi doimiy ish bilan mashg‘ul.

► Davomi 3-betda

## Taraddud

# TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOTGA TAYYORGARLIK BOSHLANDI



2









